

JAHON VALYUTA-MOLIYA MUNOSABATLARI GLOBALLASHUVI ORQALI MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.

Marjona Gulmurodova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya” fakulteti talabasi.

Umida Yuldasheva

Ilmiy rahbar, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Xalqaro moliya” kafedrası professori, DSc.

Annotatsiya. Ushbu tezıda mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli loyihalar izchillik bilan amalga oshirilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mamlakat xalqaro iqtisodiy munosabatlarini yanada rivojlanishi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mamlakat xalqaro savdo operatsiyalarini moliyalashtirishni rivojlantirishda, eng avvalo eksport salohiyatini oshirishga e'tibor qaratishi hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi muhim masalalardan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali tashkil etilishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatlashuvning ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda mamlakatning jahon bozoridaagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada mamlakatimiz ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi va mustahkamlashi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, tashqi iqtisodiy siyosat, resurs, export, import, moliyaviy tashkilotlar, moliyaviy resurs, valyuta.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvida uning hududiy va global darajadagi raqobatbardoshligi bo'yicha qiyosiy ustunligi, tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish bilan ko'p jihatdan bog'liq. Amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar bo'yicha qizg'in munozaralarning mavjudligiga qaramasdan, tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda, mamlakatning geografik, ishlab chiqarish va texnologik, mehnat resurslaridan foydalanish samarasini inobatga olish muhim o'rin tutadi. Chunki, xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi xalqaro moliyaviy munosabatlar ishtirokchilaridan yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni talab etadi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishni rag'batlantirish orqali jahon bozorlaridan mustahkam o'rin egallash hamda mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar faol tarzda amalga oshirilmoqda. Mazkur holatni quyidagi dolzarb masalalar bilan izohlash mumkin: birinchidan, eksport xorijiy

valyuta kirib kelishining asosiy manbasi bo'lib xorijdan import tovarlarini xarid qilish, mamlakat valyuta zahirasini to'ldirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi; ikkinchidan, jahon bozoridagi keskin raqobatlashuv sharoitida milliy ishlab chiqaruvchilarning yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan jahon bozorlariga chiqishini faollashtirish zaruriyati; uchinchidan, xalqaro kapital bozorining jahon savdosiga nisbatan jadal sur'atlar bilan o'sish tendentsiyasining namoyon bo'lishi va shunga muvofiq tarzda mamlakatlarning moliyaviy o'zaro bog'liqligining tez sur'atlarda o'sishi, moliya va valyuta tizimi barqarorligini ta'minlash mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatini mintaqaviy va jahon miqyosida doimiy ravishda muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Eksport salohiyatini oshirish milliy ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish tsiklini uzaytirishda, raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mazkur omilning dolzarbligini milliy iqtisodiyotda faoliyati tashkil etilgan korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati nafaqat ichki talabni, balki tashqi dunyo ehtiyojini ham qondirishga yo'naltirilganligi bilan izohlash mumkin. Hozirgi kunda mazkur korxonalarning ayrimlari ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishmayapti va bu holat ularning eksport salohiyatini oshishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmayapti. Mazkur korxonalarda mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish va shu asnoda raqobatbardoshlikka erishish ko'p jihatdan kelajakda bu mahsulotlar eksporti ko'lamini oshirish bilan bog'liqdir. Ayni paytda yana bir omilni hisobga olish kerakki, hozirgi davrda iqtisodiyotning deyarli ko'pgina tarmoqlarida raqobatbardoshlikka erishish faqatgina ommaviy ishlab chiqarish evaziga bo'lishi mumkin. Bu esa nafaqat ichki, balki tashqi bozor talabi ham avvaldan hisobga olingan tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish kerakligini nazarda tutadi.

Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo aloqalari milliy iqtisodiyot tarmoqlari rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yakuni bo'yicha jami 42,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan holda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 mlrd. AQSh dollariga yoki 16,0 foizga ko'paydi. O'tgan yildagiga nisbatan tashqi savdo aylanmasining oshishi mamlakatimizda tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirish, xususan eksportyor korxonalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning faol ravishda amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

1-jadval

Tashqi savdo aylanmasi va balansi (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

Ko'rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	O'sish sur'ati, %da	Jamiga nisbatan %da
Tashqi savdo aylanmasi	36 256,1	42 071,6	116,0	-
Eksport	15 102,3	16 610,6	110,0	100,0
tovarlar	7 292,8	9 953,4	136,5	59,9
xizmatlar	2 005,0	2 547,4	127,1	15,3
oltin	5 804,4	4 109,8	70,8	24,7
Import	21 153,8	25 461,0	120,4	100,0
tovarlar	19 932,4	23 724,2	119,0	93,2
xizmatlar	1 221,4	1 736,8	142,2	6,8
Saldo	-6 051,5	-8 850,4	-	-
Eksport (oltinni hisobga olmaganda)	9 181,7	12 130,4	132,1	-

Shuningdek, mazkur davrda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport hajmi 16 610,6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan holda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,0 foizga ko'paygan. Jami eksport tarkibida tovarlar ulushi 59,9 foizni, xizmatlar 15,3 foizni, oltin 24,7 foizni tashkil etgan hamda tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan mos ravishda 136,5 va 127,1 foizga ko'paygan, oltin eksporti esa aksincha 70,8 foizga kamaygan.

Jami import hajmi 25 461,0 mln. AQSh dollarini tashkil etgan va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 120,4 foizga ko'paygan, lekin shunday bo'lsada 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi tarkibida import hajmi eksport hajmiga nisbatan yuqori bo'lib mazkur holat tashqi savdo saldosinga manfiy, ya'ni -8 850,4mln. AQSh dollariga teng bo'lishiga olib kelgan. Jami import hajmida yuqori ulush (93,2 foiz) tovarlar hissasiga to'g'ri kelgan. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari 32,4 foiz, sanoat tovarlari (18,5 foiz) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (14,3 foiz) hisobiga to'g'ri keldi. Shu boisdan import tarkibida yuqori ulushni tashkil etuvchi mahsulotlarni milliy iqtisodiy otda ishlab chiqarish bo'yicha sanoatdagi tarkibiy islohotlarni davom ettirish va faollashtirish maqsadga muvofiq. Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabrida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 791,8 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 23 724,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 736,8 mln. AQSh dollariga etdi.

2-jadval

O'zbekistonning yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (yanvar-dekabr, mln. AQSh doll.)²⁶

Mamlakatlar	2019 y.	2020 y	2021 y.
Xitoy	7 620,9	6 432,2	7 440,9
Rossiya Federatsiyasi	6 626,9	5 640,7	7 517,0
Qozog‘iston	3 367,7	3 018,5	3 910,5
Koreya	2 755,4	2 142,4	1 889,5
Turkiya	2 525,2	2 101,7	3 388,3

Hozirgi kunda mamlakatimiz dunyoning 180 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirmoqda. Tashqi savdo aloqalarining nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (17,9 foiz), Xitoy Xalq Respublikasida (17,7 foiz), Qozog‘istonda (9,3 foiz), Turkiyada (8,1 foiz), Koreya Respublikasida (4,5 foiz), Qirg‘iz Respublikasi (2,3 foiz) va Turkmanistonda (2,1 foiz) qayd etilgan. Biroq, mazkur mamlakatlar bilan amalga oshirilgan savdo munosabatlarida tashqi savdo balansi saldosi manfiy ko‘rsatkichga teng bo‘lgan, ya’ni ushbu mamlakatlarning har biri bilan amalga oshirilgan import operatsiyalari hajmi eksportga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi bilan amalga oshirilgan eksport hajmi 2518,8 mln. AQSh dollarini, import hajmi 4922,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan va saldo -2403,3 mln. AQSh dollariga, shuningdek Rossiya Federatsiyasi bilan amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi saldosi ham -3399,2 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan.

Mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishi, milliy iqtisodiyotning ham ichki, ham tashqi salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakatimizning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokini faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning keng ko‘lamda amalga oshirilishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorlariga kirib borishiga, shuningdek, moliyaviy institutlarning xalqaro moliya bozorlariga chiqishiga qulay sharoit yaratildi. Buning natijasida esa xalqaro moliya bozorlaridan kapital jalb etish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini oshirish imkoniyati yaratildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tashqi savdo operatsiyalarini rivojlanishi va ularni moliyalashtirish bilan bog‘liq quyidagi muammolar uchraydi:

1. Hozirgi paytda respublikamizda mahsulot eksportini oshirishni ta’minlash, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulot ulushini oshirish hisobidan uning tarkibini sifat jihatidan o‘zgartirish vazifasi qo‘yilmoqda. Biroq, eksport hajmining umumiy o‘shishiga qaramay, xomashyo eksporti barqaror ravishda yuqori bo‘lib qolavermoqda. Mavjud statistika ma’lumotlari xomashyo eksporti va noxomashyo eksportini bir-biridan aniq farqlashni amalga oshirishga imkon bermaydi. Shu sababli O‘zbekistonning asosiy xomashyo eksport tovarlari – paxta tolasi, energetika vositalari va neft mahsulotlari, qora va rangli metallargina alohida guruhga ajratildi.

Shu sababli mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanishining asosiy sharti samarali va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hisoblanadi, bu esa davlatdan iqtisodiyotni

tarkibiy qayta qurish, investitsion jarayonlarni faollashtirish, soliqqa tortish darajasi va kredit qiymatini pasaytirish, narx shakllanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish, valyuta va fond bozorlarida (bu O'zbekistonda deyarli rivojlanmagan) operatsiyalar daromadlilikini pasaytirish va boshqa bir qator muammolarni hal etishga yo'naltirilgan keng miqyosli chora-tadbirlar amalga oshirishni talab qiladi. Shunday qilib, tashqi savdo siyosati makroiqtisodiy siyosatning davomchisi va bir paytning o'zida uni amalga oshirish vositalaridan biri bo'lishi ko'zda tutilgan.

2. Eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammolarning mavjudligi. Tijorat banklari mijozlarining asosiy qismi eksport va import bilan shug'ullanuvchi korxonalar ekan, ularning eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishdagi muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini dивesifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi. Mamlakatimiz hukumati tomonidan tashqi savdo siyosatining oqilona tarzda yuritilayotganligi tashqi iqtisodiy aloqalarning jadal sur'atlarda rivojlanishini ta'minlamoqda. Ushbu barqaror rivojlanish sur'atlarini ta'minlash mamlakatimizning xalqaro moliya tizimida munosib o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.X.Ataniyazov "Xalqaro moliya" darslik. Toshkent 2014. 30-bet.
2. Vahabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik (Toshkent: Baktaria press, 2015. – 512 b.)
3. O'Rourke, Kevin H.; Williamson, Jeffrey G. (2002). "When Did Globalization Begin?" *European Review of Economic History*. 6 (1): 23–50. [doi:10.1017/S13614916020000](https://doi.org/10.1017/S13614916020000)
4. Ataniyazov J. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish: nazariy, uslubiy va amaliy jihatlar. Monografiya. - T.:Tafakkur qanoti, 2017. - 144 b.
5. Михайлов Д.М. Мировой финансовый рынок: тенденции и инструменты. – М.: Издательство «Экзамен», 2000. С. 150.
6. M. Bonham. Generally accepted accounting practice under IFRS. Ernst & Young, USA, 2010.